

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'QUV REJA

Qayta tayyorlash nomi:
pedagogik qayta tayyorlash

O'qish muddati - 16 hafta

Kurs nomi: Pedagogik faoliyat yuritish huquqini beradigan qayta tayyorlash

Ta'lim shakli: ishlab
chiqarishdan ajralgan va
ajralmagan holda

I. O'QUV JARAYONI JADVALI

Oy va haftalar																O'quv jarayoni			
I				II				III				IV				Jami	shundan		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16		Auditoriya mashg'ulotlari	Pedagogik amaliyot	Yakuniy attestatsiya
A	A	A	A	A	A	A	A	A	A	P	P	P	P	Y	Y				
A	A	A	A	A	A	A	A	A	A	P	P	P	P	Y	Y	16	10	4	2

A

Auditoriya mashg'uloti

P

Pedagogik amaliyot

Y

Yakuniy attestatsiya

II. O'QUV REJASI

№	O'quv bloklari, fanlar va faoliyat turlarining nomlari	Tinglovchining o'quv yuklamasi (soatlarda)							Soatlarning oylar va haftalar kesimidagi taqsimoti			
		Umumiy yuklamaning hajmi		Auditoriya mashg'ulotlari (soatlarda)								
				Jami	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Seminar	Laboratoriya ishi				
									1	2	3	4
				Soat	%						Haftalar soni	
		4	4	4	4							
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
1.00	Tabiiy va ilmiy fanlar	40	6,9	40	22	4	14	0	30	10	0	0
1.01	Ta'lim sohasidagi Davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari	6	1,0	6	2		4		6			
1.02	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	6	1,0	6	2	4			6			
1.03	Yosh fiziologiyasi va gigiena	20	3,5	20	10		10		10	10		
1.04	Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish	4	0,7	4	4				4			
1.05	Giyohvandlik va narkoinoyatlarga qarshi kurashish	4	0,7	4	4				4			
2.00	Umumkasbiy fanlar	320	55,6	320	116	152	52	0	114	134	72	0
2.01	Ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalari	26	4,5	26	14	12			10	16		
2.02	Ta'limdagi ilg'or xorijiy tajribalar	20	3,5	20	2	10	8		20			
2.03	Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari	54	9,4	54	20	20	14		24	30		
2.04	Tarbiyaviy ishlar metodikasi	40	6,9	40	20	20			20	10	10	
2.05	Umumiy pedagogika	80	13,9	80	20	30	30		10	38	32	
2.06	Umumiy psixologiya	70	12,2	70	30	40			20	30	20	
2.07	Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat	30	5,2	30	10	20			10	10	10	
	Jami	360	62,5	360	138	156	66	0	144	144	72	0
	Pedagogik amaliyot	144	25,0								72	72
	Yakuniy attestatsiya	72	12,5									72
	Jami	216	37,5	0	0	0	0	0	0	0	72	144
	Hammasi	576	100,0	360	138	156	66	0	144	144	144	144

O'quv jarayonining tarkibiy qismlari	Haftalar soni	Hafta	Izoh
Auditoriya mashg'ulotlari	10	1-10	
Pedagogik amaliyot	4	11-14	
Yakuniy attestatsiyasi	2	15-16	O'quv rejadagi o'quv fanlari bo'yicha sinov (test, yozma yoki ijodiy ish, og'zaki so'rov) va bitiruv ishi himoyasi

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil “30”-sentabrdagi
367-son buyrug‘iga
4.2-ILOVA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

**PEDAGOGIK FAOLIYAT YURITISH HUQUQINI
BERISH BO‘YICHA QAYTA TAYYORLASH KURSINING**

NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2025

Tuzuvchilar: **D.M. Hakimova** – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrası mudiri, p.f.d. (DSc), dotsent;

M.T. Ergasheva – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Pedagogika, psixologiya” kafedrası mudiri p.f.d. (DSc), dotsent.

M.U. Badalova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Rektor maslahatchisi.

F.A. Murodova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Tayanch doktorant.

Taqrizchilar: **N.A. Yuldasheva** – Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, p.f.d., DSc, prof.

D.F. Yusupova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Ta’lim menejmenti kafedrası mudiri v.b.

Mazkur o‘quv reja va dastur A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 2025-yil _____dagi ____-son yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

**KURSNING NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI QUYIDAGI FANLAR
MAZMUNINI O‘Z ICHIGA QAMRAB OLADI:**

1. Tarbiya va ilmiy fanlar

- 1.1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari
- 1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati
- 1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena
- 1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish
- 1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

2. Umumkasbiy fanlar

- 2.1. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari
- 2.2. Ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar
- 2.3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari
- 2.4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi
- 2.5. Umumiy pedagogika
- 2.6. Umumiy psixologiya
- 2.7. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

1. TARBIYA VA ILMIY FANLAR

1.1. Ta'lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari

Ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Maktab ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi. Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari. Normativ-huquqiy hujjatlarga qo'yiladigan talablar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonun"i, Ta'lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish.

Maktab ta'limi sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga oid farmonlari va qarorlari: O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2022–2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar.

Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablar. Maktablarning lokal hujjatlari (ustav, ichki tartib qoidalar).

O'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari.

1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati

Ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni. Ta'lim oluvchilarning informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, fanining predmeti, maqsadi va vazifalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi.

Fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Ta'lim oluvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari, zamonaviy dasturlash texnologiyalari zamonaviy kompyuterlar va ularning arxitekturasini, o'quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish kabi bilimlarga ega bo'lishi.

Operatsion tizimlar, ularning turlari bilish faolligini oshirish va mustaqil ta'limni tashkil etish asosida amaliy dasturlardan foydalanib, fanni o'zlashtirishi.

Amaliy dasturlar asosida darslarni tashkil etish. Microsoft Office dasturlarida fanga oid elektron ishlanma va taqdimotlarni yaratish texnologiyalari.

Ta'lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda, o'zining kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish, amaliy dasturlar, jumladan MS Office dasturlar paketi va ularda ishlash, amaliyotda qo'llash malakalariga ega bo'lishi, interfaol ta'lim, "Case study" yordamida o'quv jarayonida AKTdan foydalanish fanini o'qitishda amaliy dasturlardan maqsadli foydalanish. Ta'lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda elektron jadval muharrirlaridan, jumladan MS Excel dasturi va uning imkoniyatlaridan samarali

foydalanish. MS Excelda avtomati qo‘shish, avtoto‘ldirish, sodda formulalar, funksiyalar, diagrammalar va filtrlash. Power Point dasturida taqdimotlar yaratish.

Multimediali darslar asosida ta’lim samaradorligini oshirish.

Ta’lim oluvchilarning kasbiy yo‘nalishlaridagi bilish faolligini oshirishda multimedialning asosiy elementlari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishi, audio va video axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.

Internet tarmog‘i vositalari. Elektron pochta, ro‘yxatdan o‘tish va fanni o‘qitishda undan foydalanish.

Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda masofadan o‘qitish texnologiyasidan foydalanib, fanni o‘qitish. Masofaviy ta’limda mahorat darslari, vebinarlarni tashkil etish texnologiyalari. LMS texnologiyasi.

Masofaviy ta’lim. O‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarini nazorat qilish, baholashning zamonaviy metodlari va vositalari.

O‘qituvchining virtual kutubxonasi. O‘quvchining elektron portfoliosi. Fanni o‘rgatish jarayonining elektron boshqaruvi.

Internet. Lokal, mintaqaviy va global tarmoqlar. Internet turlari va ularning klassifikatsiyasi. Internet xizmatlari va jumladan elektron pochta xizmati.

1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena

Kirish. Yosh fiziologiyasi va gigiyena. O‘shish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari.

Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining tarixi va rivojlanish tendensiyalari, anatomiya, fiziologiya, yosh fiziologiyasi va gigiyena fanlari to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining biologiya, pedagogika va tibbiyot fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi. Sog‘lom avlod dasturi va uni targ‘ib qilish. Respublikamizda bolalar salomatligini saqlash yo‘lida olib borilayotgan islohotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena sohasidagi yutuqlar. Fanning vazifalari, o‘shish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari. Ta’lim jarayonida ratsional usullarni qo‘llashda, har bir o‘quvchiga individual yondashishda pedagoglarning bola organizmining o‘ziga xos o‘shish va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimga ega bo‘lishlari. Yoshlik davrlari va yoshga oid o‘zgarishlari haqida tushuncha. Hujayraning umumiy tuzilishi. Irsiy kasalliklar va ularning turlari.

Nerv tizimining yosh xususiyatlari.

Nerv tizimining ahamiyati va umumiy tuzilishi shakli. Nerv markazlari haqida tushuncha. Nerv markazlarining fiziologik xususiyatlari: qo‘zg‘alish va tormozlanish, taassurotlarni summatsiyalash, kislorod tanqisligiga chidamsizlik, irradiatsiya, induksiya, A.A. Uxtomskiyning “Dominanta qonuni”. Markaziy nerv tizimi bo‘limlari-ning yoshga oid xususiyatlari. Vegetativ nerv tizimining o‘ziga xos xususiyatlari. Organizm reflektor faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatini tekshirish usullari. Shartli va shartsiz reflekslar haqida tushuncha. Ularning bir-biridan farqi. Shartli reflekslarning hosil bolishidagi shart-sharoitlar. Dinamik stereotip, nutq funksiyasi va uning fiziologik asosi. Bolalar oliy nerv faoliyatining tiplari va ularning plastikligi.

Nerv tizimi gigiyenasi. Bolalar va o'smirlarning ishchanlik qobiliyati, charchash va o'ta charchash haqida tushuncha. Ta'lim-tarbiya psixogigiyeniyasi. Nevroz (asabiylik). Asab buzilishini oldini olish.

Analizatorlarning yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Analizatorlarning umumiy tuzilishi va ahamiyati. Analizatorlarning turlari: ko'rish analizatorining yosh xususiyatlari. Ko'rish qobiliyatining pasayishini oldini olish. Eshitish analizatori. Bolalarda eshitish organining rivojlanishi. Eshitish gigiyenasi. Muvozanat apparati.

Ichki sekretiya bezlarining yosh xususiyatlari.

Organizmdagi fiziologik jarayonlarining neyron-endokrin sistemasi orqali boshqarilishi. Ichki sekretiya bezlari haqida tushuncha. Ichki sekretiya bezlarining joylashuvi. Garmonlar, ularning organizmdagi vazifasi. Organizmning gumoral boshqaruvida garmonlarning tutgan o'rni. Garmon va stress. Garmonlar va jinsiy yetilish. Ichki sekretiya bezlarining yoshga oid xususiyatlari.

Tayanch-harakat apparatining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Tayanch-harakat apparatining ahamiyati va vazifasi. Odam skeletining umumiy tuzilishi va yosh xususiyatlari. Suyak tuzilishining yosh xususiyatlari. Umurtqa pog'onasi va ularning egriliklari, egriliklarning shakllanishi. Bosh, gavda va qol-oyoq skeletining o'sishi va rivojlanishi. Muskullarning dinamik va statik ishi. Turli yosh davrlarida mushaklar kuchi, tezligi, chaqqonligi, chidamliligi, va massasining o'zgarishi. Charchash, uning fiziologik mexanizmi. Skolioz, uning kelib chiqish sabablari va uni oldini olish.

Ovqat hazm qilish tizimining yosh xususiyatlari va ovqatlanish gigiyenasi.

Og'iz boshligida, me'da va ichakda ovqat hazm bo'lishining xususiyatlari. Jigarning ovqat hazm qilishdagi ahamiyati. Moddalar va energiya almashinuvining yosh xususiyatlari. Bola o'sishi va rivojlanishida suv, mineral tuzlar va vitaminlarning ahamiyati. Turli yosh davrlarda bolalar ovqatlanishining o'ziga xosligi. Ovqatlanish gigiyenasi.

Qon va qon aylanish tizimining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Qonning ahamiyati. Qon tarkibi, uning vazifalari. Ularning yosh xususiyatlari. Qon aylanishining ahamiyati. Katta va kichik qon aylanish doirasi. Ona qornida homilaning qon aylanishi. Yurakning funksiyalari va yosh xususiyatlari. Puls va qon bosimi. Ularning yosh xususiyatlari.

Nafas organlarining yosh xususiyatlari va gigiyenasi. Nafas olishning ahamiyati. Nafas tizimining vazifasi. Tashqi va ichki nafas olish. O'pkaning tiriklik sig'imi. O'pka ventilyatsiyasi. Uning yoshga, jismoniy mashqqa bog'liqligi. Muskul ishi vaqtida nafas olish. Nafas gigiyenasi.

Ayiruv tizimining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Ayiruv jarayonlarining ahamiyati. Buyraklar tuzilishi va ularni yosh xususiyatlari. Siydik hosil bo'lish mexanizmi. Turli yoshdagi bolalar sutkalik siydik miqdori. Bolalarda tunda siydik tuta olmaslik, uning kelib chiqish sabablari.

Salomatlik haqida tushuncha. Bolalar va o'smirlar salomatlik holati. Kasalliklar. Sog'liq holatining maktab o'quvchisining ishchanlik qobiliyatiga ta'siri. O'tkir va surunkali kasalliklar. Kasalliklarni tarqalish manbalari. Tug'ma va hayot davomida orttirilgan immunitet. Ta'lim va tarbiyaning tinglovchi sog'ligiga ta'siri.

1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish

O'zbekiston Respublikasida atrof muhitni muhofaza qilish masalasida amalga oshirilayotgan islohotlar. Atrof-muhit tushunchasi va asosiy komponentlari (havo, suv, tuproq, biologik xilma-xillik) haqida tushunchalar berish.

Inson faoliyatining ekologiyaga ta'siri (sanoat, transport, qishloq xo'jaligi). Ekologik inqirozlar va ularning oqibatlari (global isish, cho'llanish, deforestatsiya).

Yashil iqtisodiyot nima? Uning asosiy tamoyillari. Innovatsion yechimlar orqali ekologik muammolarni hal qilish. Quyosh va shamol energiyasi, bioyoqilg'i, energiya samaradorligi. Oqilona suv va chiqindi boshqaruvi.

Ekologik madaniyat. Fuqaroning ekologik xatti-harakatlari (maishiy chiqindilarni ajratish, suv va energiyani tejash, transportdan foydalanish odatlari). Jamiyatdagi ekologik tashabbuslar (ko'ngillilar harakati, daraxt ekish, eko-marafonlar). Aholi o'rtasida va jamoalarda ekologik faollikni oshirish yo'llari.

1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish. Qonunlar, jazolar va profilaktika choralar.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning biologik, psixologik va ijtimoiy oqibatlari. Giyohvand moddalarni sog'likka salbiy ta'sirlari. Davolash, reabilitatsiya va jamiyatga moslashuv, davolash usullari (narkologik xizmatlar).

Dunyo va O'zbekistonda giyohvand moddalar tarqalishi bo'yicha statistik ma'lumotlar.

Milliy strategiyada belgilangan asosiy yo'nalishlari va maqsadlari. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi (giyohvand moddalar aylanmasi, tarqatish, saqlash va iste'mol qilish bo'yicha).

2. UMUMKASBIY FANLAR

2.1. Ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalari

O'quvchilarni baholash nazariyasi. Baholash, baholashning maqsadi va vazifalari. Ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, o'qituvchilarning salohiyati va o'quv-metodik ta'minot). Baholash turlari (diagnostik, formativ, summativ). Baholash tamoyillari va mezonlari.

O'quvchilarning sinfdagi faoliyatini baholash. O'quvchilar bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalari.

O'quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini baholash. O'quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini baholashda o'quv topshiriqlari(tanqidiy, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasi.

2.2. Ta'limdagi ilg'or xorijiy tajribalar

Ta'limdagi ilg'or xorijiy tajribalar. Hozirgi kunda jahonda va O'zbekiston ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan ilg'or xorijiy tajribalar haqida umumiy ma'lumot. "5E" modeli haqida tushuncha. "4K" tizimi. XXI asr ko'nikmalari.

"Lesson Study" metodikasining mohiyati. Sharq va G'arb mamlakatlarida "Lesson Study" yondashuvining paydo bo'lishi va hozirgi kundagi ahamiyati. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Lesson Study" yondashuvidan foydalanishning amaliy talqini. Boshlang'ich ta'limda "Lesson Study" yondashuvidan foydalanish metodikasi. 10–11- sinflarda "Lesson Study" yondashuvidan foydalanish metodikasi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishda "Lesson Study" yondashuvidan foydalanish istiqbollari. Raqamli ta'lim texnologiyalari va sun'iy intellekt.

Ta'limda IT va raqamli platformalardan foydalanish. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari. Inklyuziv ta'limni joriy etishdagi afzallik va kamchiliklar. Ta'limda kreativlikdan foydalanish. Ta'limda kreativlikning amaliy talqini. O'quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv.

2.3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari

O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi modernizatsiya jarayonlarining me'yoriy-huquqiy ta'minoti. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentlik darajalarini shakllantirish muammosi. "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv fanini o'rganishda tinglovchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari. Kompetensiya va kasbiy kompetentlikning

mazmuni va mohiyati. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish. Pedagogik kompetentlikka oid akmeologik yondashuvlar.

Metodik kompetentlik. Harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qoʻllay olish, yangi axborotlar ichida tez yoʻnalish olish koʻnikmalarini shakllantirish. Mashgʻulotlarni metodik jihatdan tashkil etish, bilimlarni oqilona baholay olish. Ijodkorlik, texnik fikr yuritish, oʻz kuchiga ishonish. Oʻz kasb mahoratini tinmay oshirib borish.

Oʻqituvchi kasbiga qoʻyilgan talablar. Pedagogik kreativlik. Interfaol oʻqitish metodlari asosida tinglovchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Modulli oʻqitish texnologiyalarini oʻquv jarayoniga qoʻllash metodikasi. Pedagogik kompetentlik va kreativlikni rivojlantirishda xorijiy tajribalar.

Pedagoglarning kreativlik sifatleri. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yoʻllari va shartlari. Pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishga toʻsqinlik qiluvchi omillar. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar.

Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash yoʻli va shakllari. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash metod va vositalari.

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish mohiyati. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari.

2.4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi

Taʼlim tizimida barkamol insonni maʼnaviy tarbiyalash masalalari.

Taʼlim tizimida barkamol insonni maʼnaviy tarbiyalash. Tarbiya tushunchasini shakllantirishda xalq ogʻzaki ijodining oʻrni. Buyuk allomalarning tarbiya borasidagi qarashlari. Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari.

Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati.

Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi. Maqsadga yoʻnaltirilgan tarbiyaviy faoliyati. Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari.

Taʼlim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati.

Maʼnaviy qadriyatlar va milliy oʻzlikni anglash. Insonlar ongida maʼnaviy va oʻquvchilarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish usullari. Shaxsning maʼnaviy yuksalishida milliy qadriyatlarning oʻrni.

Intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish.

Intellekt soʻzining maʼnosi va tushunchasi. Insonning aqliy qobiliyatini rivojlantirish usullari. Shaxsning voqelikka munosabatlarini oʻrganish. Boshqarish faoliyati. Fikrlash, oʻqish-oʻrganish qobiliyati. Insonning dunyoni bilish va ijtimoiy tajribasini qabul qilish qobiliyati. Oqilona ish bajarishni oʻrganish. Voqea-hodisalarni oldindan bilish.

Taʼlim tizimida oʻquvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish.

O'quv jarayonida o'quvchilarni ijtimoiy jihatdan rivojlantirish. Tarbiyaga yo'naltirilgan vaziyatlarni asoslash. O'quv munozaralarini tizimli tarzda tashkil etish. O'quvchilarning o'quv jarayoniga ongli ravishda yondashish. O'quvchilar bilimlarini mustahkamlab axborotlarni egallashga o'rgatish usullari. O'quvchilarda muammolarni bilish va ular haqida fikr-mulohaza yuritishga o'rgatish usullari.

Tarbiya texnologiyalari.

Tarbiya texnologiyasi haqida tushuncha. Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayonni tashkil etish. O'quvchilar faoliyatini to'g'ri tashkil etish usullari. Tarbiya texnologiyasi rejalashtirish va unga erishish usullari. Tarbiya texnologiyasini modellashtirish. Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini tashkil etish usullari. Tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash usullari.

Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari. Tarbiyaning maqsadi – shaxsning rivojlanishini ta'minlashdan iborat ekanligi. Pedagogik ta'sir ko'rsatish jarayonini tashkil etish mazmuni. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuvning mohiyati. Pedagogning asosiy vazifasi. Jamiyatda shaxs tarbiyasini shakllantirish usullari.

Tarbiya tizimida innovatsiyalar.

Tarbiya tizimining yangilanishida innovatsiyalarning o'rni. Innovatsiyalarning amalga oshirish usullari. Innovatsiyani tashkil topish jarayonini mazmuni. Innovatsiyani falsafiy-metodologik (o'qitish maqsadlari) asoslarini o'rganish. Innovatsiyani nazariy (o'qitish mazmuni, o'qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari) asoslarini o'rganish. Innovatsiyani texnologik (o'qitish jarayoni qoidalar tamoyili) asoslarini o'rganish.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Zamonaviy maktab rahbarining vazifasi. Pedagoglarning kasbiy faolligini oshirishda rahbarning o'rni.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifalari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish usullari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarga o'quvchilarni jalb qilish usullari. O'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish usullari. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari.

Sinfdan tashqari ishlarning shakl va metodlari.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qilishni tashkil etish usullari. Tarbiyaviy ishlarning o'quvchilar tarbiyasidagi o'rni.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maktab rejasi bilan bog'liqligini o'rganish. Sinf rahbarlari va ota-onalar qo'mitasi hamkorligi ishini

o'rganish. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish ishlarini o'rganish. Ish reja choraklik, yarim va bir yillik tuzilishini asoslab berish.

Jamoani tashkil etish metodikasi. Jamoada shaxsni tarbiyalash.

Jamoa so'zining ma'nosi va tushunchasi. Jamoaning bir maqsadga qaratilganligi. Jamoa tushunchasining ikki xil ma'noda ishlatilish mazmuni. Jamoani tashkil etish usullari. O'quvchilar jamoasini rivojlantirish usullari. O'quvchilar jamoasi o'ziga xos xususiyatlari. Jamoada shaxsni tarbiyalash usullari.

Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari.

Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari. Jamoa ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbarining o'rni.

Sinfda sog'lom muhitini yaratish. O'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va shakllantirish usullari. Sinfda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullari. Sinfda do'stona munosabatlarni shakllantirish usullari. Ota-ona hamda o'quvchilarning ma'naviy-madaniy qiziqishlari rivojlantirish usullari. Sinfda ta'lim-tarbiya samadorligini oshirish usullari.

Tarbiyaviy ishlarning maqsadi, vazifalari va yo'nalishlari.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha. Ta'lim-tarbiyaning zamonaviy usullari. Tarbiyaviy ishlarning mazmuni va vositalari. Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Jamiyatning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishiga, mehnat qilishiga o'rgatish usullari.

O'quv faoliyati samaradorligini oshirishda sinf rahbariga qo'yilgan talablar.

O'quvchilarni o'rganish usullari. O'quvchilarga tarbiya va ta'lim berish usullari. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etish usullari. O'quvchilarning o'quv samaradorligini oshirish usullari. Sinf rahbarining o'quv faoliyati samaradorligini oshirishga ijodiy yondashishni o'rganish usullari. O'quvchilarning individual xususiyatlarini o'rganish usullari. Sinf rahbarining o'quv faoliyati samaradorligini oshirishga qo'yilgan talablar.

Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash.

O'quvchilar bilim sifatini oshirishda sinfda intizomlilikni mustahkamlash. Sinf rahbari ishini rejalashtirish.

Maktabda to'garak ishlarini tashkil etish.

To'garak a'zolarining bilim sifatini nazorat qilish. Maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan Davlat talablarining mazmuni. To'garak ishlarida ko'nikma va malakalarni shakllantirish usullari. O'quvchilarni to'garak mashg'ulotlariga jalb qilish usullari. O'quvchilarning qiziqish va xohishlariga qarab to'garak yo'nalishlarini tanlash. To'garak a'zolarining to'laqonli bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Maktabda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda sinf rahbarining vazifalari. Bayramlarning mohiyati va asosiy xususiyatlari. O‘quvchilar ongida ma’naviyatni shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlarning o‘rni.

2.5. Umumiy pedagogika

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi. Hozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida qonun”i. Ta’limning uzviyligi va uzluksizligi. Uzluksiz ta’lim. Pedagogikaning ilmiy asoslari. Pedagogika fanining predmeti, vazifalari. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Pedagogika fanlari tizimi.

Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari.

Pedagogika fanining metodologiyasi, metodologik madaniyat haqida tushuncha. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari. Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’limi.

Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

Shaxsiy rivojlanish jarayoni shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar: muhit, irsiyat, ta’lim tarbiya, shaxsiy faoliyat rivojlanishining yosh va individual xususiyatlari. Yosh bosqichlari.

Didaktika – ta’lim nazariyasi.

Didaktikaning predmeti va uning vazifalari. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Zamonaviy pedagogikada ta’lim paradigma(model)lari. Ta’limning tashkiliy-metodik tamoyillari.

Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar.

